INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA LINGVISTIK TERMINLARNING MA’NO XUSUSIYATLARI

Ravshanova Asila
Samarqand davlat chet tillari instituti
Sharq tillari fakulteti Lingvistika:koreys tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.15687109

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreys va o‘zbek tillaridagi lingvistik terminlarning ma’no xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sinonimiya, antonimiya va polisemiyaga oid muammolar ko‘rib chiqilib, ushbu tillardagi lingvistik terminlarning semantik farqlari va o‘xshashliklari aniqlanadi. Maqolada qiyosiy tahlil, leksik-semantik tahlil va tarjima muammolari asosida lingvistik terminlarning qo‘llanilishidagi muammolar tahlil qilinib, ularni standartlashtirish bo‘yicha takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari koreys tilshunosligi atamalarini o‘zbek tilida to‘g‘ri qo‘llash va tarjima qilish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: lingvistik terminlar, semantika, sinonimiya, antonimiya, polisemiya, koreys tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil, tarjima muammolari.

Аннотация. В данной статье анализируются семантические особенности лингвистических терминов в корейском и узбекском языках. В ходе исследования рассматриваются вопросы синонимии, антонимии и полисемии, выявляются семантические различия и сходства лингвистических терминов в этих языках. На основе сравнительного анализа, лексико-семантического исследования и проблем перевода анализируются трудности в употреблении лингвистических терминов и предлагаются рекомендации по их стандартизации. Результаты исследования способствуют правильному использованию и переводу корейских лингвистических терминов на узбекский язык.

Ключевые слова: лингвистические термины, семантика, синонимия, антонимия, полисемия, корейский язык, узбекский язык, сравнительный анализ, проблемы перевода.

Annotation. This article analyzes the semantic characteristics of linguistic terms in Korean and Uzbek languages. The study examines issues related to synonymy, antonymy, and polysemy, identifying semantic differences and similarities between linguistic terms in these languages. Based on comparative analysis, lexical-semantic research, and translation challenges, the study explores difficulties in the usage of linguistic terms and provides recommendations for their standardization. The research results contribute to the correct usage and translation of Korean linguistic terms into Uzbek.

Keywords: linguistic terms, semantics, synonymy, antonymy, polysemy, Korean language, Uzbek language, comparative analysis, translation challenges.

Tilshunoslik terminologiyasi tilshunoslik fanining asosiy qismlaridan biri bo‘lib, turli tillardagi lingvistik atamalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Koreys va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lgani sababli, lingvistik terminlarning shakllanishi, ma’nosi va qo‘llanilishida sezilarli tafovutlar mavjud. Ushbu maqolada koreys va o‘zbek tilidagi lingvistik

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

terminlarning semantik xususiyatlari, ularning sinonimiyasi, antonimiyasi va polisemiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ushbu ikki tilning lingvistik terminlarini qiyosiy tahlil qilish va ularning tarjima jarayonidagi muammolarini aniqlashdir. Koʻplab koreys lingvistik terminlari oʻzbek tiliga bevosita tarjima qilinganida maʼno tafovutlari paydo boʻladi yoki atamalar notoʻgʻri tushunilishi mumkin. Shu sababli, koreys va oʻzbek lingvistik terminologiyasining oʻziga xos jihatlarini oʻrganish muhim hisoblanadi.

Rus faylasufi P.A.Florenskiy "Fanning mohiyati terminologiyani tuzish, aniqrogʻi joy joyiga qoʻyishdan iborat... Terminlar hayoti fan tarixining oʻzidir..." deyish orqali terminologiyaning fandagi muhim ahamiyat kasb etishini taʼkidlab oʻtgandir.

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslangan:

Qiyosiy tahlil – koreys va oʻzbek tillaridagi lingvistik terminlarning semantik jihatdan solishtirilishi.

Leksik-semantik tahlil – terminlarning maʼno jihatidan oʻxshashligi va farqlarini aniqlash.

Tarjima muammolari tahlili – koreys tilidan oʻzbek tiliga oʻgirilgan terminlarning toʻgʻriligini baholash.

Korpus tahlili – koreys va oʻzbek ilmiy matnlarida lingvistik terminlarning ishlatilish chastotasi va kontekstual oʻrganilishi.

Tadqiqot materiali sifatida koreys tilidagi lingvistik lugʻatlar, oʻzbek tilshunosligi boʻyicha ilmiy maqolalar hamda xalqaro terminologiya manbalari asos qilib olindi.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni koʻrsatdi:

1. Sinonimlar va ularning oʻzbek tiliga tarjimasi

Koreys tilidagi 음운론 atamasi oʻzbek tiliga fonologiya yoki tovush tizimi sifatida tarjima qilinadi va bu oʻz navbatida sinonimlikni keltirib chiqaradi. Baʼzi kontekstlarda bu terminning toʻgʻri tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

구문론– 통사론 → sintaksis

Ikkalasi ham gap tuzilishini oʻrganadi. 통사론 koʻproq ilmiy nutqda ishlatiladi, 구문론 esa umumiy tilshunoslikda uchraydi. Lekin oʻzbek tilida ikkalasi ham “sintaksis” deb tarjima qilinadi.

형태론– 문법론 → “morfologiya” va “grammatika”

형태론 faqat soʻz shakllari va morfemalar tuzilishini oʻrganadi. 문법론 esa umumiy grammatika qoidalarini qamrab oladi. Oʻzbek tilida baʼzan “grammatika” atamasi morfologiyani ham qamrab olgan holda ishlatiladi.

음성학– 음운론→ “fonetika” va “fonologiya”

음성학 tovushlarning fiziologik va akustik xususiyatlarini oʻrganadi. 음운론 esa tovushlarning til tizimidagi funksiyasini tahlil qiladi. Oʻzbek tilida koʻpincha “fonetika” atamasi kengroq maʼnoda ishlatiladi, bu esa baʼzan chalkashliklarga sabab boʻlishi mumkin.

2. Antonimiya va Lingvistik terminlarning qarama-qarshi maʼnodagi juftliklari

Koreys tilidagi 음성 언어 (ogʻzaki til) va 문자 언어 (yozma til) atamalarining oʻzbek tilida ham aniq muqobillari mavjud. Biroq 표준어 (adabiy til) va 사투리 (sheva) tushunchalari baʼzan farqlanishi mumkin. Koreys tilida 사투리 shevaga, 방언esa lahjaga mos keladi.Oʻzbek tilida “lahja” va “sheva” tushunchalari koreys tilidagidan biroz kengroq maʼnoga ega.

동의어– 반의어→ “sinonim” – “antonym”. O‘zbek tilida ham shunday qarama-qarshi termin juftligi mavjud.

3. Polisemiya va ko‘chma ma’no muammolari

Koreys tilida ba’zi lingvistik terminlar turli kontekstlarda har xil ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar tarjima jarayonida tushunmovchiliklarga olib keladi. Masalan, 형태소→ “morfema” yoki “so‘z shakli”. Koreys tilida bu so‘z morfema ma’nosida ishlatilsa ham, ba’zan “so‘z shakli” sifatida ham tushunilishi mumkin. 음절→ “bo‘g‘in” yoki “fonetik birlik”. Koreys tilida 음절 ba’zan fonetik birlik ma’nosida ham ishlatiladi. O‘zbek tilida esa “bo‘g‘in” faqat so‘z bo‘g‘inlari uchun ishlatiladi. 언어→ “til” yoki “nutq”. Koreys tilida 언어 ba’zan “til” (language) m’nosida, ba’zan esa “nutq” (speech) ma’nosida ishlatiladi, ya’ni ikki xil tushuncha uchun bir termin va bir tushuncha mavjud. O‘zbek tilida esa “til” va “nutq”ni farqlab beradigan bir nechta omillar mavjud.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, koreys va o‘zbek tilshunoslik terminlari o‘rtasidagi farqlar ba’zan tarjima jarayonida ma’no yo‘qolishiga olib keladi. Lingvistik atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda quyidagi muammolar mavjud:

1) ba’zi koreys terminlarining aniq ekvivalentlari yo‘q, bu esa tarjima jarayonida qo‘shimcha tushuntirish talab qiladi.
2) lingvistik terminlar ba’zan turli kontekstlarda turlicha ishlatiladi, bu esa noto‘g‘ri tushunchalarga olib kelishi mumkin.
3) koreys lingvistik terminlarini standartlashtirish va ularni o‘zbek tilida yagona shaklda berish zarurati mavjud.

Shu sababli, kelajakda koreys tilshunosligidagi terminlarni rasmiylashtirish va o‘zbek ilmiy atamalari bilan moslashtirish bo‘yicha maxsus ish olib borish maqsadga muvofiq.

1) Koreys va o‘zbek lingvistik terminlari orasidagi farqlar ilmiy tarjima jarayonida e’tiborga olinishi kerak.
2) Sinonimiya, antonimiya va polisemiyaga oid muammolarni hal qilish uchun terminlarning xalqaro standartlarga mos kelishi muhim.
3) O‘zbek tilida koreys tilshunosligi bo‘yicha maxsus lug‘atlar va qo‘llanmalar ishlab chiqilishi lozim.
4) Kelajakda ushbu mavzuda yana chuqur tadqiqot olib borish, ayniqsa, lingvistik terminlarning tarixiy rivojlanishini o‘rganish muhimdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shuxratovna, B. S. (2024). O‘ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA GENDERLIK MASALASI. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, *2*(2), 83-86.
2. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). KOREYS TILIDA OT, SIFAT VA BOSHQA SO ‘Z TURKUMLARIDA POLISIMIYA HODISASINING IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.
3. Kamarova, M. (2022). 우즈벡어와 한국어 파생법 관련 논문 사례 연구 Case studies of uzbek and korean derivation papers. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 258-263.
4. Azizova, S. (2024). KOREYS TILIDA KESIMNING TURLARI VA UNING GAPDA ISHLATILISHI XUSUSIDA. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 467-470.

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

5. Tolibov, M., & Mirzaev, S. (2024, May). THE IMPORTANCE OF TASK-BASED TEACHING IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 701-705).

6. Bazarova, S. S. (2022). Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(Special Issue 24), 155-164.

7. Алимова, Д. (2021). ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ ВЫРАЖЕНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ. Academic research in educational sciences, 2(12), 1359-1366.

8. Turakulova, S. F. Differences and Similarities of Derivative Adverbs in Uzbek and Korean Languages.

9. Bayonkhanova, I. (2024, October). Maqollarning badiiy nuqtayi nazardan o‘rganilishi. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 799-802).

10. Mamirova D. S. Using Slangs in Advertising Texts //International Journal of Management (IJM). – 2021. – Т. 12. – №. 2. – С. 315-320.

11. Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari //Samarqand: SamDCHTI. – 2009.

12. Хайруллаев Х. З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати //Номзод. дис автореферати. Тошкент. – 2001.

13. Хайруллаев Х. О лингвистической природе уровней языка и речи //Вопросы филологических наук. – 2009. – №. 2. – С. 78-79.

14. Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – 2002.

15. Khayrullaev K. Z. The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness //Abstract of candidate dissertation.–Tashkent. – 2001.